"Ziyo nurin taratib" xotira kitobining taqdimoti o’tkazildi

O’zR FA O’zbekiston tarixi davlat muzeyida atoqli tarixchi ustoz, tarix fanlari doktori, professor Dono Ziyoyeva xotirasiga bag’ishlab nashr etilgan "Ziyo nurin taratib" kitobining taqdimoti o’tkazildi. Taqdimotda ustoz olimaning yaqinlari, shogirdlari va hamkasblari ishtirok etdi.

Ushbu kitobdan atoqli olima, tarix fanlari doktori, professor, Fanlar akademiyasi Tarix institutining bosh ilmiy xodimi Dono Ziyoyevaning (1961 – 2021-yillar) hayoti va ilmiy ustozlik faoliyati haqida oila a’zolari, ustozlari, hamkasblari, shogirdlarining xotiralari o’rin olgan.

Esdaliklarda butun umrini o’zbek xalqi va davlatchiligi o’tmishini o’rganishga, tarix ilmi va ta’limi rivojiga bag’ishlagan fidoyi insonning yorqin siymosi gavdalangan.